

## MASOFAVIY TA'LIMNING BUGUNGI TA'LIMDAGI O'RNI

**Aldashev Ilhomjon**  
*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*  
**Rahmataliyeva Feruzaxon**  
*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining barcha sohalarda jadal rivojlanayotgani, aynan ta'limga sohasida masofadan o'qitishning o'rni, masofaviy ta'limga o'quvchi uchun afzalliklari, shu bilan bir qatorda kamchiliklari ham o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** Onlayn ta'limga, zamonaviy texnologiyalar, internet provayderlari

**Abstract:** In this article, the rapid development of modern information technologies in all fields, the role of distance learning in the field of education, the advantages and disadvantages of distance courses for students were studied.

**Key words:** online education, modern information technologies, Internet providers.

**Аннотация:** В данной статье изучено стремительное развитие современных информационных технологий во всех сферах, роль дистанционного обучения в сфере образования, преимущества и недостатки дистанционных курсов для студентов.

**Ключевые слова:** онлайн-образование, современные информационные технологии, интернет-провайдеры.

XXI asr elektron texnologiyalar jadal rivojlanib deyarli barcha sohalarni qamrab olayotgan davrdir. Zamonaviy axborot texnologiyalari birqancha sohalarda, jumladan, moliya, iqtisod, elektronika, robototexnika, sog'liqni saqlash, telemeditsina, kutubxona, telemetrologiya, ekonomika kabi sohalarda samarali foydalanimoqda. Masofaviy ta'limga texnologiyasi misolida ta'limga tizimida ham zamonaviy texnologiyalarning yuqori darajada rivojlanayotganini ko'rish mumkin.

Taraqqiyotning juda tez sur'atlari bilan jadallahishi oqibatida dunyoning har bir burchagida yangi texnologik ixtirolar qilinmoqda. Deyarli har bir soniyamiz kuchli axborot oqimi ta'sirida kechadi. Buning yutuqlari sifatida ko'p imkoniyatlar yaratilyapti. Dunyoning istalgan davlatiga turgan joyimizdan virtual sayohat uyushtirish imkoni, minglab kilometr uzoqlikdagi yaqinimizni yonimizda turgandek ko'rib suhbatlashish imkoni va shu kabilar. Aynan shu zamonaviy texnologiyalardan foydalanimib mustaqil ta'limga olish ham mumkin. So'nggi uch-to'rt yil ichida hokimiyat majlislarini Respublika miqyosida o'tkazish (videoselektr) yuqori oliy ta'limga tashkilotlarida talabalarni qabul qilish, baholash, davomatini tekshirish kabi masalalarni onlayn o'tkizib kelinmoqda. Ta'limga tizimida ko'p islohotlar amalga oshirilyapti. Yuqori oliy ta'limga muassasalarida ta'limga olish shakllari

(sirtqi, kechki, kunduzgi) qatorida masofadan o'qitishning joriy etilishi ham, chet davlatlar texnologiyasining ta'limgiz tizimiga kirib kelishi ham shular jumlasidan.

Masofaviy ta'limgiz Yevropa davlatlarida juda keng rivojlangan. Bu tizimning O'zbekistonga ham kirib kelishi quvonchli hol.

U.Mahkamova o'z maqolalarida aytganidek, "Masofaviy ta'limgiz texnologiyalari asosida o'qitish ko'pincha o'qituvchi va talaba o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri (real) aloqalarsiz ta'limgiz jarayonini tashkil etadigan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalananadigan ta'limgiz tizimidir".

Masofaviy ta'limgiz uslubi o'qitishning yangicha, zamonaviy shakli bo'lib, u tinglovchi (o'quvchi)ning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil bilim olishga, izlanishga, fikrlashga o'rgatadi.

Masofaviy ta'limgizning afzalliklari ko'p.. Har kim o'ziga qulay vaqtida, qulay joyda, qulay muhitda bilim olishi mumkin.. Aynan shu tufayli bu tizim dunyoga keng ommalashmoqda.

Masofaviy ta'limgiz - o'quv jarayoninini maqsadi, mazmuni, uslublari, o'qitish vositalari va internet texnologiyalari yordamida tinglovchi va o'qituvchilarining masofadan turib, interfaol muloqot jarayoni hisoblanadi.

Bundan ko'rinish turibdiki, ta'limgizning bu ko'rinishi o'qituvchi va talabalarga bir qator afzalliklar beradi. Quyida shulardan bir qanchasini ko'rib chiqamiz.

Bir vaqtning o'zida ham o'qishingiz, ham ishlaydingiz mumkin. Aslida, masofaviy ta'limgiz shaklini tanlagan insonlarning ko'pchiligi o'z ishidan voz kecha olmaydigan lekin bilim olishni xohlaydiganlarni tashkil qiladi. Qo'shimcha shug'ullanmoqchi bo'lgan abituriyentlar uchun ham bu tizim g'oyat foydali.

Kunduzi maktab ta'limgizning bu ko'rinishi o'qituvchi va talabalarga bir qator afzalliklar beradi. Quyida shulardan bir qanchasini ko'rib chiqamiz.

Vaqt jihatidan ham samara beradi. Masofaviy ta'limgizning eng afzal tomoni uning vaqtini o'zingizning xohishingizga ko'ra rejalashtirish mumkin. Unda ma'lum bir erkinliklar ham mavjud. Ya'ni darsga istagan kiyimingizni kiygan holda qatnashish mumkin. Universitet, maktab va boshqa o'quv dargohlari kabi qat'iy forma belgilanmaydi. Manzil masalasida ham erkinlik mavjud. O'zingizga qulay bo'lgan, internet aloqasi yaxshi ishlaydigan istalgan joydan turib darsni kuzatish mumkin.

Iqtisodiy jihatidan maqbul variant izlayotgan talabalar uchun masofaviy ta'limgizning bu shakli odatdagiligi kurslardan birmuncha arzon.

Shunday o'quvchilar borki, o'zini intiluvchan hisoblaydi, darslarni mustaqil o'zlashtira oladi. Bunday insonlar uchun onlayn o'qish ayni muddao. An'anaviy kurslarda guruh bo'lib o'tilgan mavzuni hamma ham birdek o'zlashtirolmaydi. Bu jarayonni sekinlashtirishi mumkin. Individual ta'limgiz esa o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib kursni tezroq tugatish imkonini mavjud.

Tanganing ikki tarafi bo'lganidek, masofadan o'qitishning ham kamchiliklari mavjud.

Yurtimizda tarbiya ta'limdan ajratilmagan holda o'qitiladi. Onlayn o'qiganda esa o'qituvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri real muloqot yo'qligi sababli ba'zi tarbiyaviy kamchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Chalg'ish ehtimoli yuqoriligini hisobga olgan holda, har bir topshiriqni muddati ichida ko'rish, o'rganish va bajarishga diqqatli bo'lish lozim.

Tarmoq bilan muammolar. Bu onlayn o'qitishning eng og'riqli tomoni. Chunki internet provayderlar hamma joyda ham birdek yaxshi ishlamaydi. Buning oqibatida topshiriq vaqtida ko'rinxmasligi, muddati o'tib ketishi,yoki vaqtida joylanmasligi kabi tarmoq muammollariga duch kelish mumkin. O'quvchi bir marta shunday muammoga uchrasa, bajargan ishi baholanmay qolsa bu uning intilishi, ishtiyoqiga ta'sir ko'rsatadi, o'zlashtirishi qiyinlashadi.

O'quvchi qay yo'sin ta'lif olmasin, sirtqi, masofadan, kunduzgi yo kechkimi, har qanday shaklda ham ilmga g'ayratli bo'lsa, berilgan topshiriqqa befarq qaramasa, shijoat, ishtiyoq bilan bilim olishga kirishsa yaxshi natija oladi va yetuk kadr bo'lib yetishadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik Ozbekiston davlatini birlashtirishiga barpo etamiz.- T., Ozbekiston: NMIU, 2016.
  2. B.Xodjayev, M.Maxmudova. Oquvchi – yoshlarda axborot istemoli madaniyatini rivojlanish texnologiyasi. – T., “TAFAKKUR QANOTI”, 2016.
  3. TALIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA METODLAR VA ULARNING IMKONIYATLARI I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023
  4. TEKNOLOGIYA DARSLARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI O'RNI M To'rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
  5. O'QUV JARAYONIGA MEDIA TA'LIMNING INTEGRATSIYASI I Aldashev - Scientific journal of the Fergana State University, 2023
  6. Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. Talqin va tadqiqotlar, 1(6).
  7. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. Экономика и социум, (6 (73)), 341-344.
  8. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamlı texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo'llanilishi. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE"
  9. THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 2, No. 1, pp. 107-113).
- Mirzayevna, S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang'ich Sinflarda Ta'lif Sifatini Oshirishda Aktdan Foydalanish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(13), 69-74.

- 
10. Mirzaakbarov, D. D. (2021). DIRECTIONS FOR THE INTRODUCTION OF NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. Экономика и социум, (4-1), 211-214.